Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317179

3.Автобиография И.Гете. Поэзия и Правда (Wahrheit und Dichtung). — М.: Захаров, 2003. — 736 с

FALSAFA TARIXIDA IRODA VA MA’SULIYAT MASALASI.

Ergashev I
TDIU Andijon fakulteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”

kafedrasi katta o‘qituvchisi f.f.n.

Bugungi kunda dunyodagi global o‘zgarishlar sharoitida o‘ziga xos yangicha yondashish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Buning sabablarini esa ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida erkinlik va mas’uliyat masalasidagi nuqtai nazarlar dinamikasini o‘rganish asosida izohlashga harakat qilamiz. Ma’lumki, inson o‘z fe’l-atvorini, kayfiyatini boshqarishga qobilligini iroda erkinligi asosida ro‘yobga chiqaradi. Bu xususda arab-islom falsafasining yirik namoyondalaridan biri Yusuf Ibn-Ishoq al-Kindi (803-872 y.y.)ning qarashlari diqqatga sazovordir. U o‘zining “G‘amdan qanday saqlanish zarur?” nomli risolasida “Bizga g‘amu anduhlardan saqlanib, baxtli yashash uchun kurashish imkoni berilgan”[15], deb yozadi. Al-Kindi ana shu imkoniyatni o‘zining qiyidagi o‘git va nasihatlarida asoslashga urinadi. Bular quyidagilar:

- birinchisi, har handay g‘am-anduh insonda sababsiz yuzaga kelmaydi, balki qaysidir hatti-harakati tufayli yo o‘zi tomonidan, yoki o‘zgalar tufayli yuzaga keladi;

- ikkinchisi, har qanday xafagarchilik vaqti-soati bilan unutiladi;

- uchinchidan, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, barchada yo‘qotish, muayyan narsadan ajrab qolish holati bo‘ladi, xafagarchilikdan butunlay holi yashovchi odamning o‘zi yo‘q, chunki g‘am chekish insonning holati bilan bog‘liq.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, inson qaysidir narsasini o‘g‘irlatsa g‘am-anduh chekadi, ammo o‘g‘irlatgan narsasi boshqa birovda umuman yo‘q ekanligidan negadir qayg‘urmaydi;

- to‘rtinchidan, inson hayotda g‘amu-tashvishsiz yashagisi keladi. Ammo istaymizmi yo‘qmi, g‘amu-musibat hayotning ajralmas qismidir... ;

- beshinchidan, bizning qo‘limizdagi narsalarga boshqalar ham ega bo‘lishga to‘la haqli. Modomiki, ularning qo‘lida bizdagi bor narsalar yo‘q ekan, ular bunga toqat qilishlari zarur va h.k.

[15] Игнатенко А.А. В поисках счастья. М., “Мысль”, 1989, С. 40-43.

Published: 28.03.2024
Cite this article: Ergashev I (2024). Falsafa tarixida iroda va ma’suliyat masalasi. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317179
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Yuqorida keltirilgan fikrlarda insonning iroda erkinligini ta’minlashga doir chuqur mantiqiy mushohadalar ilgari surilganligi bilan bir qatorda, ana shu erkinlikni taqdiri azal bilan bog‘lashga da’vat etuvchi ziddiyatli qarashlar ham yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Baxtli yashash inson hayotining maqsadini tashkil etadi, ammo al-Kindiy fikricha, muntazam yo‘qotish va mahrumliklarga to‘la bu o‘zgaruvchi dunyoda baxtga erishish uchun uning asosini barqaror o‘zgarmas, doimo mavjud bo‘luvchi tafakkur, aql-zakovat dunyosidan qidirmoq kerak.

Ammo mutafakkir shu o‘rinda ham xatoga yo‘l qo‘ygan sababi, binobarin garchi inson ongi nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, moddiyat ne’mati bo‘lsa insonning bilimlarini boyishi bilan uning aqliy salohiyoti o‘z erki, irodasini takomillashtirishdagi tafakkur quvvatining o‘sishi sodir bo‘ladi. Fikrimizcha, erkinlikning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblangan iroda erkinligi tushunchasi eng umumiy ma’noda insonning mustaqil ravishda o‘zi qabul qilgan dunyoqarashga ko‘ra, o‘z hatti-harakatlarini belgilab olishi, o‘z qaroriga asosan ish yuritishni bildiradi. Ahloqiy ma’noda inson biror harakat sodir etar ekan, yaxshilik va yomonlik, axloqiylik va ahloqsizlik o‘rtasida chegarani aniqlashga harakat qiladi. Ushbu holat insonning irodasiga bog‘liq bo‘lgani uchun ham u axloqiy mas’uliyat kasb etadi. Ya’ni uning qilmishi koralanadi yoki olqishlanadi yoki tuzatiladi. O‘zi tanlab olgan maqsad asosida amalga oshiriladigan inson faoliyati oxir-oqibatda tabiat va jamiyat rivojlanishi qonunlarini ifodalaydi, ya’ni ob’yektiv zaruriyatni keltirib chiqaradi. Ushbu zaruriyatni insonga nisbatan faqat tashqi narsa deb qaramaslik lozim, chunki faqatgina insonlar faoliyati tabiat va jamiya qonunlari bilan belgilanadi. Balki inson ham o‘z navbatida atrof-olamga ta’sir o‘tkazishga, uni o‘zgartirishga va bu orqali o‘z erkinligini to‘liq namoyon etishga ham qodirdir.

Shu o‘rinda Sharqning buyuk mutafakkiri Jaloliddin Dovoniyning ushbu masaladagi qarashlariga to‘xtalish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Uning ta’limotida har bir ma’naviy va xulqiy sifatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishga va yangilanishga qobil bo‘ladi, ular rivojlanib, takomillasha boradi, degan qoida ustunlik qiladi.

“Agar (kishilarning) xulqi o‘zgaruvchan bo‘lmaganda edi, u holda aqlning bilish quvvati foydasiz, tarbiya va siyosat haqiqiy bo‘lmagan bo‘lur edi. Unda faqat din bilan xudojo‘ylikning o‘zi yetarli bo‘lar edi”[16], deb yozadi Dovoniy. Mazkur fikridan u insonning iroda erkinligini qo‘llab-quvvatlagan, - degan xulosaga kelish mumkin[17]. Uning fikricha, insonning taqdiri o‘z qo‘lida bo‘lib, u xohishga ko‘ra o‘z xulqini

[16] Жалолиддин Довоний. Ахлоқий Жалолий. ЎзФА Шарқшунослик институтида сақланаётган қўлёзма. Инв. 7703.

[17] Алиқулов Ҳ. Жалолиддин Довоний. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 59 б.

o‘zgartirishi ijobiy xislatlarni kasb qilishi, yaramas odatlardan xalos bo‘lishi mumkin. Shuni ham e’tibroga olish zarurki, iroda erkinligi, shaxs amaliy faoliyatida boshqa ob’yektiv jarayonlar, unga mutanosib holatdagi sub’yektiv omillar bilan o‘zaro aloqadorlikda shakllanib, erkinlikni mohiyatan takomillashib borishiga imkon beradi.

Ayni paytda shaxs erkinligi u yashayotgan ijtimoiy tuzum mohiyatiga, ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy xarakteriga, odamlar ma’naviyatining darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda, Prezidentimiz I.A.Karimov; - “...ma’naviyatni yo‘qotsak, o‘zimizni va o‘zligimizni yo‘qotamiz. Ma’naviyatni yuksaltirsak, o‘z murod-maqsadimizga yetishga kuchli madad topamiz”[18], - degan edi. Shaxsning erkinligi, o‘z navbatida uning o‘zi yashayotgan jamiyat a’zolari oldidagi burchi va mas’uliyatini seza bilish tuyg‘usi bilan ham bog‘liq.

“Mas’uliyat” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda inson hatti-harakatlarini anglagan holatda amalga oshirishini anglatadi. Ba’zi adabiyotlarda uning quyidagi turlari alohida qayd etiladi: ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy mas’uliyat, moddiy mas’uliyat, jismoniy mas’uliyat, ruhiy mas’uliyat, tabiiy mas’uliyat. Bu funksiyalarga, munosabatlarga mavzumizga ko‘ra tadqiqotimiz talabidan kelib chiqib to‘xtalamiz. Falsafada bu tushuncha shaxsni jamiyatning ma’naviy-axloqiy talablarini bajarishi nuqtai nazaridan ta’rif va tasnif etiladi.

Mas’uliyatga aniq munosabatlar bilan yondashish kerak va bunda huquq va majburiyatlarning mushtarak birligidan kelib chiqish lozim bo‘lib, individ yoki odamlar guruhi ijtimoiy aloqalar tizimida qanday o‘rin egallashini ham hisobga olish zarur. Individlarning ijtimoiy vakolatlari va real imkoniyatlari qanchalik keng bo‘lsa, ularning mas’uliyat darajasi shu qadar yuqoridir. Mas’uliyat oxir-oqibatda insonning real axloqiy erkinligi haqidagi masala bo‘lib, shaxsning barcha xususiyatlari uyg‘unlikda rivojlangan holdagina to‘liq amalga oshadi.

Ijtimoiy mas’uliyat xizmat, oilaviy, fuqarolik, jamoat va shaxsiy xizmatlarni bajarayotganda vujudga keladi. U shaxsning xulq-atvori, jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlar va ularning bajarilishi uchun javob beradi. Bu jarayon quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, shaxs ma’naviy kamolotini davr va zamon talablari asosida ta’minlab borish orqali eng avvalo davlat va jamiyat qurilishida maqsadlilik va kasbiy yo‘naltirganlik hamda istiqboldagi hayotini to‘g‘ri belgilashni to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

[18] Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т.: “Ўзбекистон” 2009. 58-бет.

Ikkinchidan, shaxs ma’naviy kamolotini to‘g‘ri shakllantirish oila, maktab, jamoada, ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan belgilanadi.

Uchinchidan, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni oqilona shakllantirish, ommaviy madaniyat ko‘rinishlaridan, buzg‘unchi va yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmaslik chora-tadbirlaridan ogohlantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatlarini to‘g‘ri shakllantirish orqali amalga oshadi. Shaxs ma’naviy kamolotida ma’naviy mas’uliyat masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi va u jamiyatda quyidagicha ko‘rinishda tarkib topadi:

-ijtimoiy qatlamlarda;

-institutlar, tashkilotlar, uyushmalar, partiyalar;

-boshqaruv irearxiyasi;

-oila, maktab, mehnat jamoalari.

Bu ketma-ketlik o‘zining amal qilish doirasi tasnifida, mas’uliyat ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlarning in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, har bir pog‘onada o‘ziga xos tarzda ichki daraja ham mavjudki bu bilvosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlararo munosabatlar tarzida namoyon bo‘ladi. S

Shuningdek, har bir pog‘onada o‘z ifodasini topgan mas’uliyat darajasi uni tasniflovchi jihatlar shaxs ma’naviy faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi. Bulardan ma’lum bo‘ladiki, ijtimoiy mas’uliyat kishilik jamiyatining asosiy ma’naviy hayot mazmun-mohiyatini tashkil qiluvchi omil hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy falsafiy fikr tarixi, ayniqsa Sharq Uyg‘onishi hamda G‘arb Renessansi va ma’rifatchiligi davrlaridagi allomalarni aql-idroki orqali chuqur tadqiq qilingan qadriyatlar: iroda kuchi, tirishqoqlik, ishchanlik, tashabbuskorlik, qobiliyat va hokazolar hozirgi davr shaxs erkinligi hamda mas’uliyatini uyg‘unlashtiruvchi asosiy xususiyat bo‘lib qolmoqda. Bu xususiyatlarning shakllanishi shaxs erkinligini namoyon bo‘lishida ilgari tashlangan qadamlar edi.

Ammo bugungi kundagi global hodisalar, bashariyat tafakkuridagi tig‘iz o‘zgarishlar, ayni shu erkinlik darajasida shaxsda xudbinlik, shafqatsizlik, salbiy ma’nodagi shaxsiyatparastlik illatlarining mavjudligi bilan ham ifodalanayotganligini unutmaslik kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Jaloliddin Dovoniy. Axloqiy Jaloliy. O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozma. Inv. 7703.
2.Aliqulov H. Jaloliddin Dovoniy. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 59 b.
3.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: “O‘zbekiston” 2009. 58-bet.
4.Ignatenko A.A. V poiskax schastya. M., “Мысl”, 1989, S. 40-43.

IJTIMOIY SHERIKLIK VA UNING HOZIRGI DAVR UCHUN AHAMIYATI

Abdullayev Tursunboy Yaxshiboyevich
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti dotsenti, f.f.n
Yo‘ldashaliyev Baxodirjon Iqboljon o‘g‘li
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti
MMT ta’lim yo‘nlishi 2-bosqich talabasi

Anontatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy sheriklik-ning o‘ziga xos jihatlari, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi aholi turmush darajasini oshirish, mehnat jamoalariga ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligini ta’minlashdagi ahamiyati, ijtimoiy sheriklik tarixi bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilishga harakat qilingan.
Kalit so‘zlar: Sheriklik, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy sheriklik tarixi, Markaziy Osiyo va Yevropada ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy sheriklikning shakllanishi, ijtimoiy sheriklikningme’yoriy-huquqiy asoslari, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik.

Ijtimoiy sheriklik - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “sherik”, “sheriklik” tushunchalariga quyida-gicha ta’riflar berilgan:
1. “Biror ish harakatni birga bajaruvchi, hamkor.
2. O‘zaro birga bo‘lgan shaxs (birga yurgan, birga turgan va h.k).
3. Biror jihatdan, qaysidir jihat bilan o‘zaro birga (birgalikda) bo‘lgan shaxs yoki shaxslar (og‘ayin, do‘st va x.k).
4. Biror narsaga bir hilda talabgor, bir tan bo‘lgan shaxs”[1].
Demak, “Sherikchilik” esa bir ish faoliyatida bir –biri bilan hamkorlik qilish, birga bo‘lib ish yuritish ma’nolarini anglatadi.

Davlatning siyosiy tashkilot sifatida shakllanishi, mulkchilik munosa-batlarining takomillashuvi, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishining vujudga kelishi bir tomondan insoniyat rivojiga ijobiy ta’sir etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan turli